XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 31 - mart VI-86-46-11-169-K/23 Farg‘ona shahar hokimligi

Farg‘ona shahar mahalliy byudjetining 2022-yilgi ijrosini sifatli yakunlash maqsadida mahalliy byudjet daromad va xarajatlari miqdoriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 127 moddalariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabr O‘RQ-742-sonli (Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 26-noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2021-yil 15-dekabrda ma’qullangan) “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash to‘g‘risidagi PQ-73-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 2022-yil 8-apreldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi KQ-331-IV-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror va topshiriqlari, shuningdek Davlat dasturlarida belgilangan vazifalar ijrosini so‘zsiz ta’minlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Farg‘ona viloyatiga tashrifi davomida berilgan vazifalarga muvofiq, Farg‘ona shahrida amalga oshirilgan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tashkil etilgan “Eko shahar” hududida amalga oshirilayotgan ishlar ijtimoiy soha obyektlar va boshqa saylov uchastka hududlarida amalga oshirilgan ta’mirlash va bunyodkorlik ishlariga, shahardagi bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni ko‘tarinki ruhda o‘tkazish hamda aholini birinchi navbatda, yoshlar va ayollarni ijtimoiy-madaniy tadbirlarga keng jalb qilish, kam ta’minlangan oilalarni qo‘shimcha moddiy qo‘llab-quvvatlash, favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan xarajatlarni amalga oshirish hamda byudjet tashkilotlarining

moddiy texnik bazasini mustahkamlash va zaruriy xarajatlarini qoplash uchun viloyat mahalliy byudjetidan ajratilgan maqsadli ssuda mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona shahar mahalliy byudjetining IV-chorak mahalliy byudjet daromadlarini 14,1 mlrd.so‘mga oshirish hisobiga mos ravishda amalga oshiriladigan zaruriy xarajatlarni ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B.Mo‘minov, shahar Davlat soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev) bilan birgalikda 2022-yil IV-chorak uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozi ijrosini ortig‘i bilan ijro etilishini ta’minlash yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Shahar Davlat soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev)ga:

shahar mahalliy byudjetining 2022-yil IV-chorak uchun belgilangan (aniqlangan) daromadlar rejasini ilovaga muvofiq kamida 14,1 mlrd.so‘mga oshirib bajarilishini ta’minlash shuningdek, chorak yakuni bilan daromad manbalari kesimida to‘liq tushirilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Shahar hokimligi moliya bo‘limi (N.Umarov)ga:

shakllantirilgan qo‘shimcha manbalar hisobidan viloyat mahalliy byudjetidan olingan maqsadli ssuda mablag‘larini qoplash choralarini ko‘rish hamda mablag‘larni mazkur qarorni ilovasida belgilangan xarajatlar uchun yo‘naltirishini ta’minlasin;

6. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B.Mo‘minov, shahar hokimligi moliya bo‘limi (N.Umarov), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (Yo.Bekmirzayev) Farg‘ona shahar mahalliy byudjetining 2022-yil yakuni ijrosini sifatli yakunlash hamda Xalq deputatlari shahar kengashiga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot kiritilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (X.Erkaboyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **V.Nazarov**

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining
2023 yil 31 martdagi
VI-86-46-11-169-K/23-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona shahar mahalliy byudjetining daromadlarini oshirilayotgan miqdori

mln.so‘mda

№	Daromad turi	2022-yil 4-chorak uchun aniqlangan reja	Oshirilayotgan miqdor	Oshirilgandan keyingi miqdor
1.	Tadbirkorlardan qat’iy belgilangan soliq	1 527,0	150,0	1 677,0
2.	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	2 075,0	0,0	2 075,0
3.	Jismoniy shaxslardan yer solig‘i	1 329,0	0,0	1 329,0
4.	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	416,0	200,0	616,0
5.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1703,0	300,0	2003,0
6.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	16 807,0	4 350,0	21 157,0
7.	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	8 429,0	4 835,0	13 264,0
8.	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	5 199,6	1 820,0	7 019,6
9.	Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	6 106,0	505,0	6 611,0
10.	Yuridik shaxslardan yer solig‘i	6 157,0	740,0	6 897,0
11.	Boshqa tushumlar (MIB) ijro xujjatlari	300,0	1 200,0	1 500,0
x	**J A M I**	**50 048,6**	**14 100,0**	**64 148,6**

Farg‘ona shahar mahalliy byudjetining Viloyat mahalliy byudjetidan ajratilgan maqsadli ssuda hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlar

mln.so‘mda

№	Xarajatlar mazmuni	Ajratilayotgan mablag‘lar
1	Farg‘ona shahrida **“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Eko shahar” xududiga maysa (gazon) urug‘i (100.0 mln.so‘m) va mavsumiy gullar sotib olish va ekish (100.0 mln.so‘m)** xarajatlariga	200,0
2	**“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Eko shahar” hududida hamda shaharning obodonlashtiriladigan obyektlarida** amalga oshirilayotgan ishlarida foydalanilayotgan **avtotransport vositalarini yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlash** xarajatlari uchun	100,0
3	Shahar markaziy ko‘cha, xiyobonlar va piyodalar yo‘laklarini muntazam ravishda tozalab turish, yig‘ilgan chiqindilarni uzliksiz olish ishlarida foydalanilgan **avtotransport vositalarini yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlash (200,0 mln.so‘m)** xamda Farg‘ona shahar **markaziy ko‘cha va hiyobonlar chetlariga ekilgan gullarni sotib olish (120,0 mln)**dan bo‘lgan qarzdorlikni qoplash xarajatlari uchun	**305,0**
4	Farg‘ona shahrining markaziy ko‘cha, xiyobonlar va piyodalar yo‘laklarini muntazam ravishda tozalab turish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tashkil etilgan “Eko shahar” xududida hamda shahar obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi “Istiqlol” markaziy o‘yingohida amalga oshirilayotgan obodonlashtirish va boshqalar ishlarda foydalanilgan Farg‘ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi avtotransport vositalarini yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlash xarajatlari uchun	160,0
5	Farg‘ona shahrida “Mahallabay, xonadonbay, ko‘chabay” yurib hududlarni obodonlashtirish, aholi tomonidan kelib tushayotgan muammolarni hal etish maqsadida, shahardagi “Quvasoy” va “Yuksalish” ko‘chalaridagi irrigatsiya tizimlarini yaxshilash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	100,0
6	Farg‘ona shahrida “Mahallabay, xonadonbay, ko‘chabay” yurib hududlarni obodonlashtirish, aholi tomonidan kelib tushayotgan muammolarni hal etish maqsadida, shahardagi barcha suv-nasos drenajlari va irrigatsiya tizimlarini yaxshilash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	90,0
7	Farg‘ona shahrida “Yangi yil archasi” o‘rnatish va bezash, markaziy ko‘cha va xiyobonlariga rangli chiroqlar o‘rnatish bilan bog‘liq harajatlarga	500,0

№	Xarajatlar mazmuni	Ajratilayotgan mablag‘lar
8	Farg‘ona shahrida barpo etilayotgan “Eko shahar” hududida infratuzulma obyektlarini tashkil etish va mazkur hududdagi “Yangi O‘zbekiston bog‘i”da amalga oshirilayotgan ishlarga jalb etilayotgan texnika xizmatlari va boshqa amalga oshirilayotgan ishlar bilan bog‘liq xarajatlar uchun	500,0
9	Farg‘ona shahrida barpo etilayotgan “Eko shahar” hududidagi “Yangi O‘zbekiston bog‘i”da amalga oshirilayotgan ishlar sur’atini oshirish va jadallashtirish maqsadida tashkil etilayotgan atraksion (ko‘ngil ochar o‘yin)lar yasash va o‘rnatish bilan bog‘liq harajatlar uchun	2 000,0
10	Farg‘ona shahrida olib borilayotgan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari jarayonida manzarali va boshqa turdagi daraxtlar ekish, ularning samarali ko‘karib ketishini ta’minlash uchun biogumus sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	50,0
11	Farg‘ona shahar “Ibn Sino” MFY hududida bajariladigan obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari uchun irrigatsiya tarmog‘ini yaxshilash maqsadida quduq qazish bo‘yicha materiallar va ehtiyot qismlar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	50,0
12	Farg‘ona shahrida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tashkil etilgan “Eko shahar” hududiga kanal qurish bilan bog‘liq ishlarga qurilish materiallari sotib olish harajatlari uchun	200,0
13	Farg‘ona shahar Markaziy maydonlarni ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti huzurida tashkil etilgan yuridik maqomga ega bo‘lmagan “Yangi O‘zbekiston” bog‘ini saqlash, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish boshqaruv bo‘limi ishchi xodimlarini ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari (avgust, sentyabr oylari)ni qoplash uchun	44,3
14	Farg‘ona shahrini obodonlashtirish, shaharga tashrif buyuruvchi mexmonlar va shahar aholisi kayfiyatini ko‘tarish, shaharni ko‘kalamzorlashtirish maqsadida shahar markaziy ko‘chalari, bog‘ va hiyobonlariga mavsumiy gullar sotib olish bilan bog‘liq harajatlar uchun	391,4
15	Farg‘ona shahri hududlarida olib borilayotgan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari uchun qurilish materiallari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar (ohak, emulsiya (bo‘yoq), sement mahsulotlari) uchun	30,0
16	Farg‘ona shahrida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tashkil etilgan “Eko shahar” hududida amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlariga jalb qilingan ishchilarni bir mahal issiq-ovqat bilan ta’minlash xarajatlari uchun	48,0
17	Farg‘ona shahrida istiqomat qilayotgan aholi takliflaridan kelib chiqib, **jamoatchilik fikri asosida shakllangan eng ko‘p ovoz olgan tadbirlarni moliyalashtirish** uchun **"Ochiq byudjet" jamag‘armasiga** o‘tkazib berish uchun.	3 244,0

№	Xarajatlar mazmuni	Ajratilayotgan mablag‘lar
18	Farg‘ona shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida yangi tashkil etilgan **70 nafar yoshlar yetakchilari** faoliyatini samarali tashkil etish, ularga ishlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida **zamonaviy kompyuter jamlanmalari bilan ta’minlash** xarajatlari uchun	300,0
19	Farg‘ona shahar “Yangi-soy” mahalla fuqarlar yig‘ini xodimlariga yanada ishchan muhit va unumli mehnat qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ish samaradorligi va mas’uliyatini oshirish maqsadida mahalla binosini ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar (qurilish mollari sotib olish) uchun	30,0
20	Farg‘ona shahar Qirguli mavzesi Farg‘ona ko‘chasiga o‘rnatilgan temir tayanchlar, LED projektorlar, kabellar, elektrotexnika qurilmalari va betonlashtirish maxsulotlari sotib olish xarajatlaridan bo‘lgan qarzdorliklarni qoplash uchun	200,0
21	Shahar markaziy ko‘cha hamda xiyobonlarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borishda yasalgan haykaltaroshlik monumentlarini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	18,0
22	Farg‘ona shahar xududlarida o‘tkazilgan sayyor qabullarda fuqarolarning muammolari bo‘yicha qilingan murojaatlari yuzasidan Farg‘ona shahar Yuksalish ko‘chasida irrigasiya tizimini yaxshilash bilan bog‘liq harajatlar uchun	100,0
23	Farg‘ona shahar Shukrona ko‘chasi 5-uyda joylashgan “Kirxa” binosining xususiy mulk sifatida tasarruf etilayotgan qismida istiqomat qilayotgan fuqarolarni uy-joy bilan ta’minlash maqsadida uy-joy sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	440,0
24	Farg‘ona shahar “A.Qodiriy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, “Amfiteatr” barpo etish uchun qurilish materiallari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	50,0
25	Farg‘ona shahri hududlarida olib borilayotgan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari uchun qurilish materiallari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar (ohak, emulsiya (bo‘yoq), sement mahsulotlari) uchun	40,0
26	"Yoshlar daftari" jamgarmasiga	2 730,0
27	Farg‘ona shahar Aeroport ko‘chasida joylashgan temir to‘siqlar va tayanch ustunlarga rang berish uchun bo‘yoq mahsulotlari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	150,0
28	Farg‘ona shahar Soybo‘yi mahalla fuqarolar yig‘ini hududida sug‘orish tarmoqlarini o‘rnatish bilan bog‘liq materiallar va jihozlar sotib olish xarajatlari uchun	70,0

№	Xarajatlar mazmuni	Ajratilayotgan mablag‘lar
29	O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Farg‘ona viloyati bo‘yicha boshqarmasida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tomonidan vodiydagi Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari tarbiyachilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha o‘tkazilgan seminar ishtirokchilarini ovqatlantirish va boshqa tashkiliy masalalar bilan bog‘liq xarajatlar uchun	18,0
30	joriy yil 27-mart kuni davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining bo‘shab qolgan Farg‘ona shahar Kengashlari uchun o‘tkaziladigan saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	53,0
31	Farg‘ona shahar hokimligi hodimlari ish samaradorligini oshirish va yetarli sharoit yaratish maqsadida oshxona (mehmonxona) binosini ta’mirlash ishlari bilan bog‘liq xarajatlar uchun	200,0
32	Farg‘ona shahrida o‘tkazilgan turli bayramlar munosabati bilan tashkil etilgan tadbirlarda soha hodimlarini taqdirlash hamda bayram tadbirlarini o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlardan bo‘lgan qarzdorliklarni qoplash uchun (8-Mart)	200,0
33	Farg‘ona shahrida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostida shahardagi kam ta’minlangan, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” va “Yoshlar daftari”da turadigan oila farzandlari uchun to‘ylari uchun bayramona dasturxon tashkil etish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar uchun	118,9
34	Farg‘ona shahrida o‘tkaziladigan turli bayram tadbirlari munosabati bilan xorijiy va respublikaning boshqa hududlaridan tashrif buyuradigan mexmonlarni ovqatlantirish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar uchun	262,0
35	Farg‘ona shahrida “Ustozlar milliy forumi”ni o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlar uchun	42,0
36	Farg‘ona shahar “San’at saroyi”ning old qismiga “Yangi yil archasi” o‘rnatish va bezash bilan bog‘liq harajatlardan bo‘lgan qarzdorliklarni qoplash uchun	150,0
37	Farg‘ona shahar aholisi tomonidan kelib tushayotgan muammolarni hal etish maqsadida, shahardagi kam ta’minlangan va yordamga muxtoj oilalarni ijtimoiy qo‘llab quvvatlash maqsadida fuqarolarni yashab turgan uy-joylarini ta’mirlash uchun qurilish materiallari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	50,0
38	Farg‘ona shahar hokimligi tasarrufida bo‘lgan xizmat avtomobillari samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida avtomobillarni joriy ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	9,2
39	Farg‘ona shahar hokimligi va Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi kotibiyati bo‘limi xodimlarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ular o‘rtasida korrupsiyaviy muhit shakllanishini oldini olish maqsadida shahar hokimligi, Kengash kotibiyati xodimlariga sentyabr, oktyabr, noyabr, dekabr oylari uchun qo‘shimcha ustama haq to‘lash maqsadida	237,5
40		23,2

№	Xarajatlar mazmuni	Ajratilayotgan mablag‘lar
41	Farg‘ona shahar aholisi tomonidan kelib tushayotgan muammolarni hal etish maqsadida, shahardagi kam ta’minlangan va yordamga muxtoj oilalarni ijtimoiy qo‘llab quvvatlash maqsadida fuqarolarni yashab turgan uy-joylarini ta’mirlash uchun qurilish materiallari sotib olish bilan bog‘liq harajatlar uchun	50,0
42	Farg‘ona shahri umumta’lim maktablariga 2022-2023-o‘quv yili uchun jalb etilgan xorijiy mutaxassislar (metodist, o‘qituvchi)ning uy-joy ijara to‘lovlari bilan bog‘liq xarajatlari uchun	52,3
43	Farg‘ona Davlat Universiteti binosida qabul qilingan qonunlar hamda ularning jamiyat farovonligini ta’minlash, insonlar hayotini yaxshilashda tutgan o‘rni va ahamiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish ishlarini olib borish maqsadida 2022-yilning 13-21-iyul kunlari tashkil etilgan seminar-treninglar davomida ishtirokchilar va trenerlarni ovqatlantirishdan bo‘lgan qarzdorligini qoplash uchun	30,0
44	Farg‘ona shahar “San’at saroyi”ning old qismiga “Yangi yil archasi” o‘rnatish va bezash bilan bog‘liq harajatlardan bo‘lgan qarzdorliklarni qoplash uchun	100,0
45	2022-yilda ta’mirlash ishlari yakuniga yetkazilayotgan soliq inspeksiyasi binosi hududida obodonlashtirish va qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish maqsadida	100,0
46	2022/2023-yillar kuz-qish davrida yong‘inlarni samarali bartaraf etish maqsadida ko‘pik hosil qiluvchi modda sotib olish bilan bog‘liq harajatlar uchun	50,0
47	Farg‘ona shahar hokimligi binosini 2022-yil 3-chorak davomida qo‘riqlash xizmati xarajatlari bilan bog‘liq harajatlar uchun	78,4
48	Farg‘ona shahridagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarida 2021-yilning 1-yanvar kunidan 2021-yilning 18-noyabr kuniga qadar faoliyat ko‘rsatgan xodimlarga hisoblangan ustama to‘lovlarini to‘lab berish maqsadida	118,0
x	**U M U M I Y J A M I**	**14 083,1**